

## MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRAUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Qo‘ziboev Umarbek Ulug‘bekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18982461>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini takomillashtirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Mintaqa, mintaqa iqtisodiyoti, transport, infratuzilma, transport infratuzilmasi.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются пути улучшения транспортной инфраструктуры для устойчивого развития региональной экономики. Также приводятся выводы и предложения по совершенствованию транспортной инфраструктуры в региональной экономике.

**Ключевые слова.** Регион, региональная экономика, транспорт, инфраструктура, транспортная инфраструктура.

**Abstract.** This article discusses ways to improve transport infrastructure for the sustainable development of the regional economy. It also provides conclusions and proposals for improving transport infrastructure in the regional economy.

**Key words.** Region, regional economy, transport, infrastructure, transport infrastructure.

Hozirgi globallashuv va hududlar o‘rtasida raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi transport infratuzilmasi holati bilan bevosita bog‘liq. Bu bo‘yicha samarali transport tizimi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bozorlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, aholi harakatchanligini oshiradi hamda investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytiradi. Bu borada mamlakatimizda tashqi savdo transport yo‘laklarini yanada diversifikatsiyalash uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimizning tranzit salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish hamda ularning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatdoshligini yuksaltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3422-son Qarori [1] qabul qilindi. Shu bois, transport infratuzilmasini takomillashtirish mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida transport infratuzilmasi iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik mezonlari uyg‘unligini ta‘minlashi lozim. Bu esa transport sohasida kompleks va tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Transport infratuzilmasi mintaqa iqtisodiy faoliyatining asosiy poydevorlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki, transport infratuzilmasi “davlat - biznes” subyektlari o‘rtasida yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatadigan milliy iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan biri hisoblanib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘shadi [2]. Ushbu soha yo‘llar, temir yo‘l tarmoqlari, logistika markazlari va jamoat transporti tizimi ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasida uzviy bog‘lanishni ta‘minlaydi. Rivojlangan transport infratuzilmasi mahsulotlarni tez va arzon yetkazib berish imkonini yaratadi. Bu esa korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi.

Shular bilan birgalikda, transport infratuzilmasi aholi bandligi va mehnat bozori faolligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi transport aloqalarining yaxshilanishi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirib, hududlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu borada tadqiqotlarda mamlakatimizda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo‘nalishlari yangicha ma‘lumotlar bilan asoslanadi [3]. An‘anaviy transport infratuzilmasi esa modellari ko‘p hollarda iqtisodiy foydani ustuvor qo‘yib, ekologik va ijtimoiy omillarni yetarlicha hisobga olmaydi. Natijada, atrof-muhit ifloslanishi, tirbandliklar va aholining kam harakatchan qatlamlari uchun transport imkoniyatlarining cheklanishi kuzatiladi.

Fikrimizcha, barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan transport infratuzilmasini takomillashtirish iqtisodiy o‘rishni qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda resurslardan samarali foydalanish, aholining barcha qatlamlari uchun transport xizmatlariga teng kirish imkoniyatini yaratish hamda atrof-muhitga nisbatan salbiy ta‘sirni kamaytirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Shu sababli transport

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

infratuzilmasini rivojlantirishda barqarorlik mezonlari asosiy yo‘naltiruvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Bizningcha, transport infratuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- yo‘l-transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish. Bu borada mintaqa iqtisodiyotida avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarining sifatli bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mavjud yo‘llarni rekonstruksiya qilish, yangi transport koridorlarini barpo etish va logistika uzellarini rivojlantirish transport xarajatlarini kamaytirib, tovar aylanmasini tezlashtiradi.

- jamoat transportini rivojlantirish. Bu bo‘yicha jamoat transporti infratuzilmasini takomillashtirish barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishidir. Avtobus, elektrobus va tramvay tarmoqlarini kengaytirish aholining harakatchanligini oshiradi, shaxsiy transportdan foydalanishni kamaytirib, atrof-muhitga chiqariladigan zararli gazlarni qisqartiradi.

- logistika va multimodal infratuzilmani rivojlantirish. Unga binoan, zamonaviy mintaqa iqtisodiyotida multimodal transport tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomobil, temir yo‘l va havo transporti o‘rtasidagi integratsiya logistika jarayonlarini optimallashtiradi, eksport-import operatsiyalarini yengillashtiradi va mintaqaning tranzit salohiyatini oshiradi.

- ekologik barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish. Shunga asosan, transport infratuzilmasini takomillashtirishda ekologik omillar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Yoqilg‘i tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va “yashil transport” infratuzilmasini joriy etish atrof-muhit muhofazasini ta‘minlaydi. Bu borada velosiped yo‘laklari va piyodalar infratuzilmasini rivojlantirish shaharlarda ekologik vaziyatni yaxshilash bilan birgalikda aholining salomatligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

- institutsional va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish. Chunki, transport infratuzilmasini barqaror rivojlantirish samarali institutsional va moliyaviy mexanizmlarsiz amalga oshmaydi. Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish, loyihalarni uzoq muddatli rejalashtirish va shaffof boshqaruv tizimini joriy etish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, transport infratuzilmasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, intellektual transport tizimlarini joriy etish va ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish barqarorlikni ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, transport infratuzilmasini takomillashtirish mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada samarali, ekologik xavfsiz va ijtimoiy adolatli transport tizimi iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlaydi, aholining turmush sifati va hududlar raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, transport infratuzilmasini rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarni uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuvni qo‘llash mintaqa iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrda “2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3436209>

2. Ergashev Sh.V. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish yo‘nalishlari (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ misolida). // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2024. - 10 b.

3. Karriyeva B.K. O‘zbekistonda logistika va transport infratuzilmalarini rivojlantirish yo‘nalishlari. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. - 1241 b.